Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish.....	962
Ruziyeva Shaxlo Raupovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari.....	968
Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant	



Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar	972
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish	978
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida)	983
Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari	1000
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlari	1005
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati	1010
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili	1014
Hakimjon Hakimov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1019
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish	1024
Ilyasova Barno Axmadovna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili	1028
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modellashtirish	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar	1046
Yuldashv Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari	1052
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari	1058
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi	1064
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы	1070
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции	1075
Бабаева Гузаль Яшиновна , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili	1081
Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni	1086
Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi	1091
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdning ahamiyati	1095
Ibodullayev Abror Axrorovich , dotsent, Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li , Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health	1100
Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli , Avazov Ilkhom Ravshanovich	
Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан	1104
Тураева Адиба Икрамовна , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices	1109
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova , DSc	
Ishlab chiqarish tafvutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri	1117
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich , PhD	
Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish	1122
Kalandarova Nargiza Narimanovna , PhD	



ISHLAB CHIQRISH TAFOVUTINING MARKAZIY BANK MONETAR SIYOSATI QARORLARIGA TA'SIRI

Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada ishlab chiqarish tafovutining mohiyati va ahamiyati yoritib berilgan. Iqtisodiyotning real va potensial ishlab chiqarish imkoniyatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, "Ijobiy" va "Salbiy" ishlab chiqarish tafovutining inflyatsion bosim hamda mehnat resurslariga bo'lgan ta'siri tahlil qilingan. Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bankning monetar siyosat bilan bog'liq qarorlariga ta'siri ko'rib chiqilgan. Xususan, muayyan ishlab chiqarish tafovuti sharoitida markaziy bankning qanday foiz siyosatini amalga oshirishiga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, ishlab chiqarish tafovutining makroiqtisodiy darajada ustun va zaif jihatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: real ishlab chiqarish, potensial ishlab chiqarish, ishlab chiqarish tafovuti, monetar siyosat, inflyatsion targetlash, foiz stavkasi.

Abstract: The article explains the nature and importance of output gap. In the article the real and potential production possibilities of the economy and the factors affecting them have been studied. Also, the impact of "Positive" and "Negative" output gap on inflationary pressure and labor resources are analyzed. The impact of the output gap on the Central bank's monetary policy decisions is examined. In particular, the attention is paid to what kind of interest policy the Central bank implements in the conditions of either positive or negative output gap. Furthermore, macroeconomic strengths and weaknesses of the output gap are highlighted.

Key words: actual output, potential output, output gap, monetary policy, inflation targeting, interest rate.

Аннотация: В статье освещается сущность и значение разрыв выпуска. Изучаются реальные и потенциальные производственные возможности экономики и факторы, влияющие на них. Также были проанализированы влияние "положительного" и "отрицательного" разрыва в производстве на инфляционное давление, а также на трудовые ресурсы. Было рассмотрено влияние разрыва выпуска на решения Центрального банка, касающиеся монетарной политики. В частности, основное внимание уделяется тому, какую процентную политику Центральный банк проводит в условиях определенного разрыва выпуска. Кроме того, перечислены преобладающие и слабые стороны разрыва выпуска на макроэкономическом уровне.

Ключевые слова: реальное производство, потенциальное производство, разрыв выпуска, монетарная политика, инфляционное таргетирование, процентная ставка.

KIRISH

Jadal bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida 2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan monetar siyosatning maqsad va yo'nalishlarida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, pul agregatlarining maqsadli ko'rsatkichlarini ta'minlashga qaratilgan monetar targetlash rejimidan voz kechilib, inflyatsion targetlashga o'tish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yildi. Bunda, birlamchi asosiy e'tibor inflyatsion targetlash rejimini joriy etishning makroiqtisodiy sharoitlarini shakllantirishga qaratildi.

Ba'zi hollarda inflyatsion targetlashga o'tish real iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasiga xavf solishi mumkinligi ta'kidlanadi. Ya'ni, mazkur rejimni tanlagan markaziy banklar inflyatsiyani jilovlashni asosiy maqsad sifatida ko'radi. Bu esa, makroiqtisodiy siyosatning boshqa strategik maqsadlariga bo'lgan e'tiborni pasayishiga sabab bo'ladi. Ammo, monetar siyosatning asosiy modellari odatda, inflyatsiya va real iqtisodiyotdagi o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon etishini ham unutmazlik zarur. Ya'ni, mamlakatda iqtisodiy faollik darajasini ifodalovchi ishlab chiqarish tafovutini baholab borish shular jumlasidandir.

Shu kabi munozarali jihatlar monetar siyosat instrumentlaridan foydalanishning makroiqtisodiy sharoitlarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa, mazkur maqola mavzusining amaliy ahamiyati va dolzarbligini belgilaydi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijlik iqtisodchi ekspert va olimlar tomonidan ishlab chiqarish tafovuti, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, shuningdek, ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar qarorlariga ta'siri yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, maqolada ularning ba'zilari keltirib o'tildi.

Avstraliya Milliy universiteti professori va Osiyo Taraqqiyot banki eksperti I. Klaus ^[1] Yangi Zelandiyada ishlab chiqarish tafovutini inflyatsiyaning foydali ko'rsatkichi sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, ishlab chiqarish tafovuti Yangi Zelandiya Zaxira banki tomonidan inflyatsion bosimni boshqarishda qo'llaniladigan asosiy komponentdir. I. Klausning fikricha, ishlab chiqarish tafovutining ishonchli ko'rsatkichini olish keng qamrovli ma'lumotlar va kuzatuvlar tahlilini talab etadi. Yangi Zelandiya tajribasi ko'rsatadiki, ishlab chiqarish tafovuti monetar regulyatorga samarali monetar siyosat yuritish uchun inflyatsion bosim haqida muhim signallarni bera oladi. Ya'ni, ishlab chiqarishning ijobiy (salbiy) tafovutida, uchtadan ikkitasida inflyatsiya keyingi chorakda oshadi (pasayadi) va beshtadan uchtasida keyingi yilda oshadi (pasayadi).

R. Verner ^[2] tomonidan ishlab chiqarish tafovutini tahlil qilishda eng ko'p qo'llaniladigan biznes sikli ko'rsatkichlarining emperik samaradorligi baholangan. Bunda, ishlab chiqarish tafovutining iqtisodiyotdagi noaniqliklarga nisbatan munosabati ham tadqiq etilgan. R. Vernerning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish tafovuti umumiy inflyatsiya va tashqi sharoitlarga nisbatan tahlil qilinadi. Shuningdek, inflyatsiya va tashqi muvozanatning sikl ko'rsatkichlari sifatida yaxshi ishlamasligi sababli monetar siyosat qarorlarini qabul qilishda ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish talab etiladi.

R. Billining ^[3] ta'kidlashicha, inflyatsiya va nominal yalpi ichki mahsulot ishonchli hisoblangan bo'lsa-da, mas'ullar monetar siyosat yo'nalishlarini ishlab chiqarishda odatda ishlab chiqarish tafovutidan foydalanadilar. Bunda, nominal foiz stavkalariga xususan, Keynsning nol quyi chegarasi (NQCH) modeliga alohida e'tibor qaratiladi. Ya'ni, nominal foiz stavkasi NQCH bo'lmaganda, Markaziy bank nominal YAIMni emas, balki inflyatsiyani barqarorlashtirishga e'tibor qaratishi kerak. Ammo NQCH mavjud bo'lganda, nominal YAIMni barqarorlashtirishga qaratilgan siyosat markaziy bank uchun pul-kredit sharoitlarini yumshatishga yordam beradi. Iqtisodiy barqarorlik deganda "Barqaror" so'zini to'g'ri talqin qilinishi muhim bo'lib, bu barcha mehnatga layoqatli aholining kuniga 18 soat yoki ishlab chiqarish quvvatlarining 24/7 rejimida ishlashini anglatmaydi. Aksincha, bu normal darajada, ortiqcha bosimlarsiz iqtisodiy resurslar to'liq ish bilan ta'minlanganligini bildiradi.

Shu o'rinda iqtisodchi olimlarning inflyatsion targetlashga o'tgan mamlakatlardagi ishlab chiqarish tafovutiga nisbatan yondashuvlariga to'xtalib o'tish o'rinlidir. Xalqaro valyuta fondi ekspertlarining ta'kidlashicha, "ishlab chiqarish tafovuti iqtisodiyotdagi real yalpi talab hajmi va potensial ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi farqning iqtisodiy o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, potensial ishlab chiqarish hajmi bu – to'liq quvvat bilan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning maksimal miqdorini ifodalaydi. Bunda, ishlab chiqarish sur'atlarining o'zgarish tendensiyalaridan ko'ra, joriy ishlab chiqarish hajmining iqtisodiyotdagi uzoq muddatli potensial ishlab chiqarish hajmiga qanchalik yaqin ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi" ^[4].

Umuman olganda, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ishlab chiqarish tafovutini baholashning yangi metodologiyalari ishlab chiqilmoqda ^[5]. Shuningdek, mamlakatlardagi iqtisodiy noaniqliklar sharoitida ishlab chiqarish tafovutini nazorat qilishning yangi mexanizmlari ishlab chiqilmoqda ^[6].

Fikrimizcha, har qanday Markaziy bank monetar siyosatning oraliq va strategik maqsadlariga, xususan, inflyatsion target darajasini belgilash va unga erishishda o'z majburiyatlarini aniq belgilab olishi zarur. Bunda, inflyatsion kutilmalar bilan bog'liq ishlab chiqarish tafovutini muntazam nazorat qilib borish muhim hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bir qator xorijlik iqtisodchi olimlarning mavzuga doir yondashuv va qarashlarini tadqiq etish hamda ularga nisbatan mualliflik munosabatini bildirish asosida maqolaning ilmiy-nazariy jihatlarini shuningdek, ishlab chiqarish tafovutini markaziy bankning monetar siyosat bilan bog'liq qarorlariga ta'sirini tahlil qilish asosida maqolaning mazmun va mohiyati ochib berildi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy baholash va ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy bank inflyatsiyaning past va barqaror darajasini ta'minlash maqsadida foiz kanalidan faol tarzda foydalanadi. Ta'kidlash joizki, foiz stavkalari o'zgarishining inflyatsiyaga ta'sir etishi muayyan davrni o'z ichiga oladi. Chunki, foiz stavkalaridagi o'zgarishlarga nisbatan aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan munosabat bildirilishi va istiqboldagi qarorlarini kutilmalarga muvofiq moslashtirilishi ma'lum vaqt talab etadi. O'z navbatida, Markaziy bank ham foiz stavkalari va inflyatsiya o'rtasidagi ta'sirlar kechikishi va ularning oqibatlari xususida dastlabki xulosa va tasavvurlarga ega bo'lishi zarur hisoblanadi.




Markaziy bank tomonidan samarali monetar siyosatni amalga oshirishda iqtisodiyotning joriy ishlab chiqarish va bunda resurslardan foydalanish quvvatini baholab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ish o'rinlariga takliflar bo'yicha ommaviy axborot vositalaridagi e'lonlar hamda malakali xodimlarning taqchilligi mehnat bozoridagi vaziyatni ifodalash bilan bir qatorda ishlab chiqarishni qay darajada avtomatlashtirilganligini ham namoyon etadi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish tafovutini ham izohlash imkonini yaratadi.

Ishlab chiqarish tafovuti ishlab chiqarish jarayonida resurslardan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib, iqtisodiyotning qizishi yoki sovushi fonida yuzaga keladigan inflyatsion bosim xavfini baholashga yordam beradi. Aytish joizki, markaziy bank tomonidan ishlab chiqarish tafovuti inflyatsiyani shakllantiruvchi asosiy omil sifatida qaralsa-da, inflyatsiyani baholovchi ideal ko'rsatkich hisoblanmaydi. Chunki, ishlab chiqarish tafovutining inflyatsiya bilan bog'liqligi har doim ham barqaror bo'lavermaydi. Shu sababli, markaziy bank ishlab chiqarish tafovutidan keladigan signallarga nisbatan tegishli darajada ehtiyotkorlik choralarini ko'rish bilangina cheklanadi.

Aksariyat olimlar iqtisodiyotning siklik pasayishi davrida narxlarning pasayishi ehtimoli ko'proq va aksincha, degan fikrga osongina rozi bo'lishlari mumkin. Ammo mamlakatlar tajribasi ko'rsatadiki, mazkur yondashuv har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Odatda, real va potensial ishlab chiqarishlar orasida potensial ishlab chiqarish barqaror inflyatsiyaga mos kelishi ta'kidlanadi. Chunki, potensial ishlab chiqarishga iqtisodiyot juda issiq yoki juda sovuq bo'lmagan holatda ishlab chiqarilgan mahsulot sifatida qaraladi.

Inflyatsiyaning barqarorlashuvi real iqtisodiy faollikni oshiradi. O'z navbatida, inflyatsiyani barqarorlashtirishga qaratilgan choralarning qat'iyashtirilishi ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirishga sabab bo'ladi. Ishlab chiqarish tafovuti – real ishlab chiqarishning (yalpi talab) potensial ishlab chiqarishdan (yalpi taklif) qay darajada chetga chiqishi bo'lib, ushbu ko'rsatkich "og'ish kengligi" deb ham ataladi (1-rasm).



1-rasm: Ishlab chiqarish tafovutining shakllanish trayektoriyasi¹

Iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash sur'atlarining makroiqtisodiy o'sish tendensiyasi bilan mutanosib o'zgarib borishi ishlab chiqarish tafovutini maqsadli ko'rsatkichlar doirasida shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Ammo, so'nggi yillarda mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan chora va tadbirlarga qaramay "... iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar o'sish sur'atining yalpi ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atidan 2 barobardan ko'proq oshishi, iqtisodiyotda qo'shimcha talab yuzaga kelishiga va talab hajmlarining amaldagi taklif hajmlaridan oshib ketishiga, pirovardida ijobiy ishlab chiqarish tafovutining paydo bo'lishiga olib kelmoqda" [7].

Makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turishda uzoq muddatli muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bunda, uzoq muddatli muvozanatga muayyan bir rivojlanish nuqtasi sifatida emas, balki iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining barqaror trayektoriyasi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Uzoq muddatli muvozanatga erishishda birinchidan, iste'mol narxlari inflyatsiyaning belgilangan targetiga muvofiq holda shakllanib borishi, ikkinchidan, makroiqtisodiy o'sish sur'atlari ishlab chiqarish hamda texnologik o'sish tezligi bilan belgilanuvchi potensialga mutanosib tarzda o'sib borishi muhim hisoblanadi.

Xalqaro tajribadan ma'lumki, hukumat va monetar regulyator ishlab chiqarish tafovutini qisqartirish maqsadida potensial yoki real ishlab chiqarish sur'atlariga ta'sir etish orqali ularning trayektoriyasini o'zgartirishga hamda uzoq muddatli muvozanatini ta'minlashga harakat qiladilar (2-rasm).

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Ko'p hollarda real ishlab chiqarish hajmi iqtisodiy agentlarning yalpi talabi sifatida ham tavsiflanadi. Real ishlab chiqarish hajmining potentsialdan oshib ketishi esa inflyatsion bosimni yuzaga keltiradi. Nazariy jihatdan potentsial ishlab chiqarish imkoniyatlarini real ishlab chiqarish sur'atlariga yaqinlashtirish orqali ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirish imkoniyati mavjud (2.A-rasm). Ammo, bu iqtisodiyotda natijasi uzoq muddatda namoyon bo'luvchi tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Amaliyotdan ma'lumki, har qanday hukumat o'z vakolati davrida imkon qadar jamiyat e'tiborini qozonuvchi qisqa muddatli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlarini amalga oshiradi va islohotlar yo'lini tanlaydi. Vaziyatga aniqroq baho berish maqsadida Fisher tenglamasiga yuzlanamiz:

$$MV = PY \quad (1)$$


Bu yerda: M – muomaladagi pul hajmi; V – pulning aylanish tezligi; P – narxlar darajasi; Y – nominal yoki potentsial ishlab chiqarish.

Yuqoridagi tenglamada keltirilgan Y – potentsial ishlab chiqarish hajmi bo'lib quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Y = AK^{\alpha}L^{\beta} \quad (2)$$

Bu yerda: A – umumiy ishlab chiqarish omili (bir yilda ishlab chiqarilgan barcha tovarlarning haqiqiy qiymati). K – kapital (barcha mashinalar, uskunalar va binolarning o'lchovi bo'lib, kapital kiritish qiymati joriy kapital narxiga bo'linadi); L – ishchi kuchi (firmalar tomonidan to'lanadigan ish haqi evaziga ishchilar ishlagan ish soatlari).

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, aynan Y ning aniq qiymatini hisoblashdagi murakkabliklar va undagi kapital hamda ishchi kuchi omillarining uzoq muddatli natijadorligini hisobga olgan holda monetar va fiskal regulyatorlar iqtisodiyotning potentsial imkoniyatlarini siljitishdan ko'ra real ishlab chiqarish imkoniyatlariga ta'sir etish orqali ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.



2-rasm: Potentsial va real ishlab chiqarishga ta'sir etish orqali ishlab chiqarish tafovutini tartibga solish²

Real ishlab chiqarish sur'atlariga ta'sir etish orqali ham ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirish mumkin. Mazkur holatda monetar regulyator faol restriksion siyosat olib boradi. Asosiy foiz stavkani oshirish orqali banklararo pul bozoridagi qisqa muddatli hamda depozit va kreditlar bo'yicha uzoq muddatli foiz stavkalariga ta'sir etadi. Bu orqali iqtisodiy agentlarning yalpi talabini ham pasaytirgani holda, real ishlab chiqarish sur'atlarini potentsial ishlab chiqarish imkoniyatlariga yaqinlashtirish orqali ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirishga erishadi (2.B-rasm).

Ishlab chiqarish tafovutini shakllanishining fundamental sabablariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ishlab chiqarishning uzoq muddatli muvozanatiga erishish inflyatsiya va bandlik ko'rsatkichlari bilan yuqori darajada ta'sir bog'liqligiga ega ekanligini ko'rish mumkin. Ya'ni, iqtisodiyotda ijobiy ishlab chiqarish tafovutining shakllanishi inflyatsion bosimni oshirgani holda ishsizlikni qisqarishiga sabab bo'ladi. Jumladan, yuqori talab mavjud sharoitda tadbirkorlik subyektlari qo'shimcha ishchi kuchini yollash yoki ish haqini oshirish imkoniyatlarini qidiradilar. Hattoki, qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini qurish zarurati ham yuzaga kelishi mumkin.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Ammo, mazkur jarayonlar joriy noqulay sharoitlarning shakllanishi hosilasi bo'lib, muayyan qisqa vaqt ichida o'z trayektoriyasini o'zgartirishi mumkin. Bu quyidagicha izohlanadi: ma'lum tovarga bo'lgan talabning keskin ortishi tadbirkorlar oldiga joriy imkoniyatlaridan-da yuqori darajada ishlab chiqarish vazifasini qo'yadi. Talab yuqori sharoitda xomashyo tovarlari narxining qimmatlashuvi tannarx shakllanishiga ta'sir etadi va uni oshiradi.

XULOSA

Regulyator tomonidan monetar siyosat qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda ishlab chiqarish tafovutini baholashdan foydalaniladi. Ammo, ishlab chiqarish tafovutidan foydalanishning ba'zi kamchiliklari mavjudligini ta'kidlash zarur. Xususan, potensial ishlab chiqarishni baholash joriy tendensiyalarga emas balki, avvalgi yillar ma'lumotlariga tayanadi. Bu esa, ishlab chiqarish tafovutini baholashdagi har qanday xato monetar siyosat samaradorligini pasaytirishiga sabab bo'lishini anglatadi.

Aytish joizki, har doim ham salbiy ishlab chiqarish tafovutiga intilmaslik zarur. Chunki, iqtisodiy kon'yunkturaning salbiy ishlab chiqarish tafovutida shakllanishi muayyan davrda yuqori talabni qondirishga xizmat qiladi, ammo iqtisodiyotning qizishi fonida tovarlar zaxirasining oshib borishiga va natijada ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy faolligining pasayishiga sabab bo'ladi. Salbiy ishlab chiqarish tafovuti tovar va xizmatlarga talabning past darajasi sharoitida barqaror ishlab chiqarish natijasida yuzaga keladi. Salbiy ishlab chiqarish tafovuti shakllanishi natijasida iqtisodiyotda inflyatsion bosim pasayadi ammo asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan ish bilan bandlik darajasi ham qisqaradi.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga nisbatan talabning qisqarishi ularning narxini pasayishiga, o'z navbatida, ishlab chiqarishning qisqarishi fonida xomashyo tovarlariga bo'lgan talabning kamayishi xomashyo tovarlarining ham narxini pasayishiga sabab bo'ladi. Ishlab chiqarishdagi uzilishlar natijasida, tadbirkorlik subyektlari ishchi kuchini yoki ish vaqtini qisqartirishga hattoki, ba'zi ishlab chiqarish obyektlarini yopishga ham majbur bo'ladilar. Bu esa, makroiqtisodiy darajada ishsizlikning ortishiga, aholi daromadlarining pasayishi fonida ularning iste'mol xarajatlarini kamayishiga, yalpi talabning qisqarishi esa, inflyatsiya sur'atlari va iqtisodiy o'sishni pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Claus I. Is the Output Gap a Useful Indicator of Inflation (March 2000). Reserve Bank of New Zealand Discussion Paper No. DP2000/05, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=320826> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.320826>
2. Werner Roeger, Kieran Mc Morrow, Atanas Hristov and Valerie Vandermeulen. Output Gaps and Cyclical Indicators / EUROPEAN ECONOMY. Discussion paper 104, –July 2019. –p.24.
3. Roberto M. Billi. Output Gaps and Robust Monetary Policy Rules / International Journal of Central Banking. Vol. 16, No. 2., March 2020. –pp. 125-152.
4. Sarwat Jahan and Ahmed Saber Mahmud. What Is the Output Gap? FINANCE & DEVELOPMENT, September 2013, Vol. 50, No. 3.
5. Alich A. A New Methodology for Estimating the Output Gap in the United States / IMF Working Paper, WP/15/144. –p.17.
6. Casey, E. Inside the “Upside Down”: Estimating Ireland’s Output Gap. Irish Fiscal Advisory Council and University College Dublin. Working Paper No.5., 2018. –pp. –1-61.
7. Duskobilov U.Sh. Impact of Monetary Policy Sustainability Indicators on Economic Growth in Transition to Inflation Targeting. European Journal of Business Startups and Open Society. –Vol. 3 No. 7 (Jul – 2023). –pp. –103-110.
8. Duskobilov U.Sh. Features of the transition to inflation targeting in Poland. International Journal of Business Diplomacy and Economy, 2(8), (2023). –pp. –1-8.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosatning 2019-yil va 2020-2021-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. –2018 y. – 79,80-b.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.